

INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUVNING YURIDIK YO'NALISH TALABALARI UCHUN AHAMIYATI

Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Email: raxdildora18@gmail.com

[Tel:+998936764114](tel:+998936764114)

UDK.37.378.378.4

ORCID:0009-0002-8419-6495

Annotatsiya: Ingliz tilida akademik yozuv yuridik yo'nalish talabalari uchun xalqaro huquqiy matnlarni tahlil qilish, ilmiy izlanishlar olib borish va xalqaro tashkilotlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqola yuridik yo'nalishdagi talabalar uchun akademik ingliz tilining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot adabiyot tahlili, talabalar o'rtasidagi so'rovnoma natijalari va ekspertlarning fikrlariga asoslanadi. Xulosa sifatida, akademik ingliz tilini o'rganishni takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, huquqiy amaliyot, huquqiy yozuv, yuridik terminlar, yuridik hujjatlar;

ВАЖНОСТЬ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКОГО ВУЗА

Рахманова Дилдора Абдулхамид қизи

Преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация: Академическое письмо на английском языке является для студентов-юристов важным инструментом для анализа международно-правовых текстов, проведения научных исследований и успешной работы в международных организациях. В данной статье анализируется значение академического английского языка в образовательном процессе студентов-юристов. Исследование основано на анализе литературы, результатах опросов студентов и мнениях экспертов. В заключение представлены практические рекомендации по улучшению академического изучения английского языка.

Ключевые слова: академическое письмо, юридическая практика, юридическое письмо, юридические термины, юридические документы;

THE IMPORTANCE OF ACADEMIC WRITING FOR LAW STUDENTS IN ENGLISH

Rakhmanova Dildora Abdulkhamid qizi

Namangan state university, EFL teacher

Abstract: *Academic writing in English is an important tool for legal students to analyze international legal texts, conduct scientific research and successfully work in international organizations. This article analyzes the importance of academic English in the educational process for law students. The research is based on literature analysis, student survey results and experts' opinions. As a conclusion, practical recommendations for improving academic English language learning are presented.*

Key words: *academic writing, legal practice, legal writing, legal terms, legal documents;*

KIRISH

XXI asrda huquq sohasi tobora globallashib borayotgan bo'lib, xalqaro huquq me'yorlarini tushunish, xalqaro sud amaliyotini o'rganish va huquqiy yozma muloqotlar uchun ingliz tilini bilish alohida ahamiyatga ega bo'ldi [4]. Ingliz tili bugungi kunda ko'pgina xalqaro huquqiy shartnomalar, nizolarni hal qilish mexanizmlari va sud amaliyoti tili hisoblanadi. Shu sababdan yuridik yo'nalish talabalariga uchun bu tilni chuqur o'rganish zarur. Yuridik yo'nalish talabalariga akademik ingliz tili darslarini kiritish ularning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, ilmiy izlanishlarni olib borish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu esa talabalarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qilish uchun zarur sharoit yaratadi[1].

Mazkur maqolada quyidagi savollarga javob beriladi:

1. Akademik ingliz tilining yuridik yo'nalish talabalariga ta'siri qanday?
2. Ushbu tilni o'qitishda qanday yondashuvlar samarador?
3. Ingliz tilini o'rganishdagi asosiy to'siqlar nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro ilmiy maqolalar, o'quv darsliklari va akademik ingliz tiliga oid amaliy tadqiqotlar o'rganildi. Asosiy e'tibor ingliz tilining yuridik ta'limdagi rolini tahlil qilishga qaratildi.

Mashxur tadqiqotchi Smith ingliz tilining xalqaro huquqiy amaliyotdagi o'rni haqida fikr yuritgan. U ingliz tilini huquq sohasi uchun global til sifatida ko'rsatib, xalqaro shartnomalar va sud hujjatlari ko'pincha ingliz tilida tuzilishini ta'kidlaydi. Smithning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yuridik ta'limda ingliz tili faqat til vositasi emas, balki huquqiy muloqotning fundamental elementi hisoblanadi. U yuridik matnlarni tahlil qilish va yozuv orqali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga

urg'u beradi[4] Yana bir olim Brown o'zining kitobida huquqiy yozuvni o'rgatishning innovatsion yondashuvlariga e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, ingliz tilida yuridik terminlarni o'rgatish talabalarning xalqaro huquqiy hujjatlarni tushunish qobiliyatini oshiradi. U yuridik yozuvni o'rgatishda case-study, moot court va interaktiv seminarlarni joriy qilishni taklif qiladi. Brownning fikricha, bunday yondashuvlar talabalarni nazariyadan amaliyotga tayyorlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi[1]

Jones o'zining maqolasida yuridik terminologiyani o'rganish yuridik yozuvni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun asosiy komponent ekanini ta'kidlaydi. U o'z tadqiqotida huquqiy matnlar bilan ishlash uchun maxsus til darslarini tashkil qilishni taklif qiladi. Jones shuningdek, yuridik yo'nalishdagi talabalar o'rtasida ingliz tilini o'rgatish samaradorligini oshirish uchun amaliy vazifalardan foydalanishni muhim deb hisoblaydi[3]. Williamsning fikriga ko'ra esa yuridik ta'limda ingliz tilini o'rgatishning xalqaro tajribasini o'rganadi. Uning tadqiqotlari ko'p tilli talabalar uchun ingliz tilini o'zlashtirishni osonlashtirish yo'llariga qaratilgan. Williams ingliz tilidagi huquqiy matnlar bilan ishlash orqali talabalar mantiqiy fikrlash va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlaydi[5]. Xu va Wangning tadqiqoti yuridik maqsadlar uchun ingliz tilini o'rgatishning innovatsion metodlariga bag'ishlangan. Ular ingliz tilini o'rganishda talabalar uchun raqamli resurslar va onlayn platformalardan foydalanishni taklif qilishgan. Tadqiqotda huquqiy yozuvni rivojlantirish uchun simulatsiya dasturlari, masalan, virtual sud jarayonlari qo'llanilishining yuqori samaradorligi haqida so'z yuritiladi[6].

Cunningham o'zining asarida talabalar duch keladigan asosiy qiyinchiliklarni batafsil yoritgan. U huquqiy yozuvni rivojlantirishda tuzilmaviy aniqlik va tilning aniqligi muhim ekanini qayd etadi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'p talabalar huquqiy terminologiyani noto'g'ri ishlatish yoki plagiat muammosiga duch keladi. Shuning uchun u o'qituvchilarga akademik halollikni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berishni tavsiya qiladi[2]. Mashxur olim Johnson maqolasida akademik yozuv va yuridik amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. U akademik yozuv talabalarni amaliy huquqiy faoliyatga tayyorlash uchun muhim qadam ekanini

ta'kidlaydi. Johnsonning fikricha, yuridik yozuvni muvaffaqiyatli egallagan talabalar huquqiy hujjatlar tayyorlashda sezilarli ustunlikka ega bo'ladilar[7]

Miller o'zining tadqiqotida huquqiy yozuvda mantiqiylik va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. U o'z maqolasida yuridik ta'limda kuchli yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish talabalar bilimini mustahkamlashda va ular uchun xalqaro ish imkoniyatlarini kengaytirishda muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuridik yo'nalishdagi talabalarning akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy huquqiy ta'limning muhim elementi hisoblanadi. Har bir muallif ushbu mavzuning turli jihatlarini yoritgan bo'lib, ular ta'lim jarayonida maxsus yondashuvlarni joriy qilish zaruratini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik yozuv talabalar uchun nafaqat ilmiy, balki professional faoliyatda ham katta ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonning 3 ta yuridik yo'nalish oliy o'quv yurtlarida 100 nafar talabalar va 10 nafar professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotda talabalarning ingliz tilini o'rganishdagi ehtiyojlari, duch kelayotgan qiyinchiliklari va o'qitishning samarador metodlari aniqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ingliz tilining ahamiyati bo'yicha talabalarning 90% ingliz tilini bilish xalqaro huquqiy hujjatlarni tushunishda muhim ekanini ta'kidladi. 75% talaba xalqaro konferensiyalarda va munozaralarda qatnashish uchun tilni rivojlantirishni zarur deb hisoblaydi.

Yuridik ingliz tilini o'qitishda case-study va moot court kabi interaktiv yondashuvlar talabalar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Simulyatsiya va amaliy mashg'ulotlar tilni o'rganish samaradorligini 65% ga oshirgan.

Talabalar uchun eng katta to'siqlar – yuridik terminologiyani tushunish va akademik yozuv malakasini shakllantirish. Darslarning nazariya va amaliyotni birlashtirmasligi talabalarning bilimlarini mustahkamlashda muammo tug'diradi.

Bundan tashqari, yuridik yo'nalish talabalariga ingliz tilini o'rgatishda faqat umumiy grammatika va so'z boyligini rivojlantirish yetarli emas. Yuridik ingliz tili bu tilni maxsus kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda o'rganishni talab qiladi.

Oddiy ingliz tilini o'zlashtirish faqatgina umumiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, lekin yuridik matnlarni tahlil qilish, shartnoma loyihalarini tuzish yoki sud materiallari bilan ishlash uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalarni taqdim eta olmaydi. Shu sababli, yuridik ingliz tilining o'ziga xos jihatlarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Birinchidan, xalqaro huquq sohasidagi terminologiyani o'rganish zarur. Bu, talabalarni xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va deklaratsiyalar matnlarini tushunish va sharhlashga tayyorlaydi. Xalqaro huquqning asosiy atamalarini o'zlashtirmasdan, talaba global miqyosdagi yuridik amaliyotda muvaffaqiyatli faoliyat olib bora olmaydi. Misol uchun, "jurisdiction," "arbitration," "sovereignty," va "ratification" kabi terminlarni to'liq tushunish va ulardan to'g'ri foydalanish bo'lajak yuristning kasbiy malakasini oshiradi.

Ikkinchidan, shartnomalar tili (contractual language) ham maxsus o'rganishni talab qiladi. Shartnomalarda ishlatiladigan tilning o'ziga xos qoidalari bor: bu til murakkab, aniq va mantiqan strukturalangan bo'lib, ko'pincha eski inglizcha elementlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, "hereinafter," "whereas," "notwithstanding," va "heretofore" kabi iboralar shartnomalar tuzishda muhim ahamiyatga ega. Shartnoma tuzish va tahlil qilishda ushbu iboralar va ulardan foydalanish qoidalari bilish talabalar uchun ustunlik yaratadi.

Uchinchidan, sud amaliyotlari va protsessual jarayonlarga oid maxsus terminlarni o'rganish ham dolzarbdir. Sudga taalluqli hujjatlar (masalan, da'vo arizalari, sud qarorlari va iltimosnomalar) o'ziga xos leksikani o'z ichiga oladi. "Plaintiff," "defendant," "subpoena," "affidavit," "motion" kabi atamalar sud jarayonlarida muntazam uchrab turadi va talaba ularni nafaqat yodlash, balki kontekstda to'g'ri qo'llashni ham bilishi kerak. Shuningdek, sud muhitida ishlatiladigan inglizcha rasmiy va norasmiy ifodalarni tushunish va ulardan foydalanish ko'nikmasi rivojlantirilishi zarur.

Bundan tashqari, yuridik hujjatlar tili (legal drafting) bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Bu ko'nikma yuridik hujjatlarni aniq, qisqa va tushunarli shaklda tuzish imkonini beradi. Masalan, hujjatlarni tahlil

qilish, o'z fikrlarini aniq bayon qilish va huquqiy argumentlarni asoslashni o'rgatish o'quv dasturining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Shuningdek, talabalarni maxsus tayyorlash dasturlari orqali o'qitish sifatini oshirish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn kurslar va interaktiv platformalar, talabalarni mustaqil ta'limga rag'batlantiradi[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuridik yo'nalish talabalariga ingliz tilini o'rgatishda faqat til bilimlarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Yuridik ingliz tili alohida va chuqur o'rganishni talab qiladi, bu esa kasbiy ehtiyojlarga moslangan maxsus ta'lim yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shunday yondashuvgina talabalarni nafaqat milliy, balki xalqaro yuridik amaliyotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Mazkur tadqiqot yuridik yo'nalish talabalari uchun akademik ingliz tilini o'rganish muhimligini tasdiqlaydi. Ingliz tili nafaqat xalqaro huquqni tushunish vositasi, balki talabalarning kasbiy rivojlanishi va xalqaro aloqalar uchun zarur platformani taqdim etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Yuridik ta'limda ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish uchun amaliyotga asoslangan usullardan keng foydalanish lozimligi ta'kidlab o'tildi va buni tajribalar asosida izohlab berildi. Kelgusida tadqiqotlar olib borish uchun ushbu sohaga oid bo'lgan manbalardan yanada ko'proq foydalanish va ta'lim jarayonlarida ularni qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown, T. (2019). Legal English and Its Importance in Modern Legal Education. Oxford University Press.
2. Cunningham (2017) Academic Writing in Legal Studies: Challenges and Opportunities. The Journal of Legal writing Volume 30, Number 2, Fall 2017
3. Jones, R. (2018). Teaching Legal Terminology in Academic English Courses. Cambridge Journal of Legal Studies, 10(3), 45–58.
4. Raxmanova, D. (2023). The Role of Writing Skill in Foreign Language Fluency. MIASTO PRZYSZŁOŚCI, 31, 382-384.
5. Smith, J. (2020). The Role of English in International Legal Practice. International Journal of Law and Language, 15(2), 101–115.
6. Williams, D. (2021). Enhancing English Language Proficiency in Law Students: A Global Perspective. Language Education Quarterly, 20(4), 56–70.

7. Xu, Y., & Wang, L. (2022). Innovative Methods in Teaching English for Legal Purposes. Journal of Legal Education, 18(1), 23–40.
8. Johnson (2020) Bridging the Gap: Academic Writing and Legal Practice, Interdisciplinary Journal of Scientific research, volume 9, number 4